
Yoshlar yetakchisi tavsiyasiga ko'ra olingan imtiyozli kredit evaziga o'quv markazi ochildi

Tadbirkor Gavharoy Avazovaga mahalladagi yoshlar yetakchisining tavsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 765-sonli qarori asosida "Yosh tadbirkorlar komissiyasi" tomonidan loyihani amalga oshirish uchun 270 mln. so'm imtiyozli mablag' ajratilgan edi.

Shahar markazidagi "Bahor" mahallasida qurilgan ko'p qavatli uyning podval qismi ta'mirlandi, o'quv kurslarini o'tish bo'yicha jihozlandi. "Progress" o'quv markazida chet tillari, huquq, mental arifmetika va kompyuter kurslari tashkil etildi.

O'quv markazining ochilish marosimida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari Maqsudjon Sulaymonov, shahar bo'linmasi rahbari Azizbek Soyibnazarov, hamkor tashkilotlarlar rahbarlari hamda o'quvchilar ishtirok etishdi.

Tadbir davomida o'quv markazining ochilishida amaliy yordam ko'rsatgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi Farg'ona viloyati hududiy vakilligi rahbari Azizaxon Rahmatova, IT-Park Farg'ona filiali direktori Bahromjon Djalilov va "Yoshlar-kelajagimiz" jamg'armasining viloyat bo'limi boshlig'i Nabisher Sulaymonovlar hamda bank mutaxassislari, mahalla xodimlariga tashkilotchilarning esdalik sovg'alari topshirildi.

Shundan so'ng, mehmonlar o'quv markazida ta'lim oluvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.

2022-09-27 16:06:26